

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDINING TASHKIL ETILISHI TARIXIGA BIR NAZAR

Komolov Dilshod Pulatovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasida, tarix fanlari doktori (DSc), professor

Qlichov Farxod Pozilovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasida magistranti

A LOOK AT THE HISTORY OF THE CREATION OF THE CONSTITUTIONAL COURT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Komolov Dilshod Pulatovich, Department of History and Social Sciences, University of Economics and Pedagogy, Doctor of History (DSc), Professor

Qlichov Farxod Pozilovich, graduate student of the Department of “History and Social Sciences” of the University of Economics and Pedagogy

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ СОЗДАНИЯ КОНСТИТУЦИОННОГО СУДА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Комолов Дилшод Пулатович, кафедра истории и социальных наук Экономико-педагогического университета, доктор исторических наук (DSc), профессор

Кличов Фарход Позилевич, магистрант кафедры “История и общественные науки” Экономико-педагогического университета

<https://orcid.org/0009-0000-6812-4577>

e-mail:

dilshod.komolov.2025@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon tajribasi tahlil qilingan holda O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat idorasining tashkil etilishi, keyinchalik esa konstitutsiyaviy sudga aylantirilishi, sud tarkibining shakllantirilishi, sudyalarning vakolatlari tarixiy manbalar hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy nazorat, sudya, kengash, mansabdor shaxs, qonun, qaror, farmon, hokimiyat.

Abstract: This article, with an analysis of international experience, highlights the creation of the constitutional control department in the Republic of Uzbekistan, and then its transformation into the Constitutional Court, the formation of the court, the powers of judges based on historical sources and a comparative analysis of criteria and legal acts.

Key words: constitutional control, judge, council, official, law, resolution, decree, power.

Аннотация: В данной статье с анализом мирового опыта освещено создание в Республике Узбекистан управления конституционного контроля, а затем преобразование его в Конституционный суд, формирование состава суда, полномочия судей на основе исторических источников и сравнительного анализа критериально-правовых актов.

Ключевые слова: конституционный контроль, судья, совет, должностное лицо, закон, постановление, указ, власть.

KIRISH. Dunyo tajribasidan ma'lumki, konstitutsiyaviy nazorat paydo bo'lishining asosiy mezoni sifatida konstitutsiya deb nomlanuvchi qonunlarning vujudga kelishi bilan uzviy bog'liqdir. Konstitutsiyaviy nazorat konstitutsiyalarda belgilangan normalarni ro'yobga chiqarishning o'ziga xos kafolati bo'lib xizmat qiladi [1,-C.167-168]. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, har qanday qonun, shartnoma, sud yoki davlat boshqaruv organlari hujjatlari davlat konstitutsiyasiga mos bo'lishi kerak. Agar davlat organlari tomonidan chiqarilgan norma konstitutsiyaga zid bo'lsa, unda ushbu norma yuridik kuchga ega bo'lmaydi va qo'llanilmasligi lozim, chunki u haqiqiy emas deb topiladi [2, – C.46].

Konstitutsiyaviy nazoratni qaysi organ amalga oshirishi kerakligi masalasi hal etilganda dastlabki davrda asosiy e'tibor qonun chiqaruvchi hokimiyat organlariga qaratilgan edi. Chunki ular konstitutsiyani qabul qiladi va qonun ijodkorligida ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ayrim davlatlarda bu masalada ijro etuvchi organlarning harakatlari ham samarali deb tan olinadi. Jumladan, ba'zi mamlakatlarda davlat rahbarlariga imzolashga taqdim etilgan qonun konstitutsiya talablariga javob bermasa, parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni imzolashni rad etish huquqiga ega ekanligi fakti ham bundan dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy nazorat – bu hujjatning konstitutsiyaga mosligini tekshirishdan iborat. Konstitutsiya qoidalarini buzuvchi qonun yoki boshqa normativ hujjat aniqlanganda konstitutsiyaviy nazorat organi uni bekor qilish huquqiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Konstitutsiyaviy nazorat davlatdagi sud va huquqni himoya qilish faoliyatining maxsus turi bo'lib, qonun va boshqa normativ hujjatlarning ushbu davlat konstitutsiyasiga mos kelishini tekshirishdan iborat. Konstitutsiyaviy nazorat tegishli davlat organlari, mansabdor shaxslari konstitutsiya qoidalarini buzuvchi hujjatni aniqlaganda o'z hokimiyatlari orqali uni bekor qilish huquqiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Qonun hujjatlarining konstitutsiya talablariga mosligini tekshirish bilan ko'pchilik xorijiy davlatlarida maxsus davlat institutlari shug'ullanadi. Konstitutsiyaga zid bo'lgan qonun va boshqa hujjatlarning qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik,

konstitutsiya normalarini buzadigan bunday qonun va boshqa hujjatlar qonuniy kuchga kirgan bo'lsa ularning qo'llanishining oldini olish mazkur organlarning majburiyati sanaladi.

Konstitutsiyani huquqiy himoyalash choratadbirlarini turli xil organlar amalga oshirishi mumkin: davlat rahbari, parlament, prokuratura, lekin hozirda ko'pchilik davlatlarda asosiy funksiyasi konstitutsiyaviy qonuniylikni ushlab turish va ta'minlash bo'lgan sud organlari tashkil etilgan.

Aytish kerakki, hozirgi tushunchadagi konstitutsiyaviy nazorat nazariyasi birinchi marta AQShda paydo bo'lgan. Chunonchi, 1803-yilda federal Oliy sud davlatda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan konstitutsiyaga zid bo'lgan har qanday qonunlarga moratoriy e'lon qilish huquqiga ega ekanligini ma'lum qilgan edi. Shunday qilib, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish bilan davlat hokimiyatining uchinchi hokimiyati – sud hokimiyati shug'ullana boshladi. Sudlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlarni hayotga tatbiq etilishini to'xtatib qo'yish huquqiga ega bo'ldi. Bugungi kunda yozma konstitutsiyalar mavjud bo'lgan deyarli barcha davlatlarda bunday nazorat amal qiladi.

MUHOKAMA. Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarda konstitutsiyaviy nazorat quyidagi organlar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda:

a) Umumiy yurisdiksiya sudlari. AQSH, Argentina, Daniya, Meksika, Norvegiya, Yaponiyada u yoki bu qonunning konstitutsiyaga mosligi haqidagi masala har qanday instansiya sudi tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Biroq ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror faqat eng yuqori sud instansiyasi tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat faqat mazkur davlatning eng yuqori sud instansiyasi bo'lmish yuqori sud mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi (masalan, Avstraliya, Boliviya, Hindiston, Irlandiya, Kanada, Filippin, Shveytsariya, JAR).

b) Konstitutsiyaviy sud. Ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat ularning asosiy yoki yagona funksiyasi bo'lgan maxsus konstitutsiyaviy sudlar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Bunday maxsus sud organlari umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga kirmaydi: (Avstriya, GFR, Italiya, Ispaniya,

Turkiya, Kipr, Bolgariya). Bunday tizim birinchi marta 1920-yilda Avstriyada paydo bo'lgan [3, -B.424].

c) Maxsus idoralar tomonidan. Ba'zi mamlakatlarda sud bilan bog'liq bo'lmagan maxsus organ tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, Fransiyada tarkibi prezident va parlament tomonidan belgilanadigan Konstitutsiyaviy kengash mavjud. Xuddi shunday tizim ayrim Afrika davlatlari – sobiq fransuz mustamlakalarida vujudga kelgan.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Konstitutsiyaviy sudni haqli ravishda mustaqillik tengdoshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu sudni tashkil etishga urinish mustaqillik sari tashlangan dadil qadamlardan biri hisoblanadi. 1990-yil 24-martda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasida O'zbekiston SSR Konstitutsiyaviy nazorat komiteti tarkibi saylangan edi. Oradan bir oz muddat o'tgach, 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi "O'zbekiston SSR Konstitutsiyaviy nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qildi va 1990-yil 1-iyuldan kuchga kirdi. Mazkur qonunning 2-moddasiga asosan O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazoratni O'zbekiston SSR Konstitutsiyaviy nazorat komiteti, Qoraqalpog'istonda esa Qoraqalpog'iston ASSR Konstitutsiyaviy nazorat komiteti amalga oshirishi bayon etilgan edi[4, -B.28].

O'zbekiston SSR Konstitutsiyaviy nazorat komiteti siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan rais, rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston ASSR vakilini qo'shgan holda 9 a'zodan iborat tarkibda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan o'n yillik muddatga saylanar edi[4, -B.28].

O'zbekiston SSR Konstitutsiyaviy nazorat komiteti faoliyatining izchilligini ta'minlash maqsadida uning tarkibi har besh yilda yarmiga yangilanar edi. Mazkur komitet O'zbekiston SSR va Qoraqalpog'iston ASSR hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga mos kelishi yuzasidan nazoratni amalga oshirgan. Konstitutsiyaviy nazorat komitetining normativ hujjatlarni yoki uning ayrim qoidalarini Respublika Konstitutsiyasiga mos emasligi to'g'risidagi xulosasi Oliy Kengash deputatlari umumiy soni uchdan ikki qismi tasdiqlagan qaror bilan rad etilishi mumkin edi. Bundan ayon bo'ladiki, dastlabki davrda

Konstitutsiyaviy nazorat komiteti katta ta'sir kuchiga ega emas edi.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng ilk bor Konstitutsiyaviy sud vakolatlari Asosiy qonunda o'z aksini topdi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-109-moddalarida Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish tartibi va vakolatlari bayon etilgan edi. Jumladan, 109-moddaga asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqishi bayon etilgan edi[5, -B.37-38].

1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyatini tartibga soluvchi birinchi maxsus me'yoriy-huquqiy hujjat sifatida tarix sahifalaridan joy oldi. Ushbu qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy nazoratning oliy sud organi ekanligi bayon etilgan edi. Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan sud raisi, uning o'rinbosari, sud kotibi va Qoraqalpog'iston Respublikasidan vakil bo'lgan sudyani qo'shgan holda 8 a'zodan iborat tarkibda besh yil muddatga saylanishi ko'rsatib o'tilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 97-moddasiga binoan vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga

chiqqan Prezident umrbod Konstitutsiyaviy sud a'zosi lavozimini egallashi belgilab qo'yilgan edi[6, -B.16-28].

NATIJALAR. Konstitutsiyaviy sud sudyasiga yuksak darajadagi malaka talablari qo'yilgan edi. Jumladan, siyosat va huquq sohasi mutaxassislari jumlasidan bo'lgan, qoida tariqasida yuridik ixtisosi bo'yicha ish staji o'n yildan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sud sudyasi etib saylanishi mumkin edi. Har bir sudya alohida-alohida tartibda saylanar edi.

1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan qarorga muvofiq Konstitutsiyaviy sud vakolatlari vaqtincha Konstitutsiyaviy nazorat komiteti zimmasiga yuklatildi. Bunday qaror qabul qilinishiga sabab, ushbu sudning tarkibi yangi saylanadigan parlament – Oliy Majlis tomonidan shakllantirilishi lozimligi bilan izohlangan edi. Shu asosda 1995-yilgacha Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi o'z faoliyatini davom ettirdi[7, -B.48].

1994-yil dekabrda ilk bor O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tamoyili asosida Oliy Majlisga saylovlar bo'lib o'tdi. Yangi saylangan parlament 1995-yil 30- avgustda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qildi. Ushbu qonunga asosan Konstitutsiyaviy sud a'zolari soni qisqartirilib, rais, rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda besh a'zodan iborat tarkibda saylanishi ko'rsatib o'tilgan edi[8,-B.88-97].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining raisi va Bosh prokuror Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega edi. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch nafar sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin edi.

Konstitutsiyaviy sudning ko'rib chiqilgan ish yuzasidan yakuniy to'xtami qaror deb atalgan va barcha qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan. Konstitutsiyaviy sud qarori qat'iy bo'lib, uning ustidan shikoyat berilmas edi. Agarda qabul qilingan qaror yuzasidan sudga ma'lum bo'lmagan yangi holatlar ochilganda yoki hal qiluv qarori asoslanilgan

konstitutsiyaviy norma o'zgartirilganda Konstitutsiyaviy sud o'z tashabbusi bilan qarorini qaytadan ko'rib chiqishi mumkin edi.

Yuqoridagi qonun asosida ilk marotaba 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tarkibi Oliy Majlis tomonidan saylandi[4,-B.29]. 1996-yil 5-iyulda esa Reglament ko'rinishida Konstitutsiyaviy sudning protsessual kodeksi va sudylar odob-axloq qoidalarini belgilaydigan Konstitutsiyaviy sud sudyasining sha'ni kodeksi qabul qilindi.

XULOSA qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi istiqloq tufayli nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki tom ma'noda huquqiy mustaqillikka ham erishdi. Chinakam demokratik jamiyat qurish maqsadida hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga asoslangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ilk bor suveren O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida sudlarning mustaqilligi va hokimiyatning alohida tarmog'i ekanligi e'tirof etildi hamda jahon tajribasini o'rgangan holda Konstitutsiyaviy sud tashkil etildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. К.Ф.Гуценко. Правоохранительные органы. Учебник для юридических вузов и факультетов. 2-е изд, испр. и доп. – М.: Зерцало, ТЕИС, 1996.
2. Конституционное право зарубежных стран в вопросах и ответах: Учебно-методическое пособие / Под ред. А.В.Малько. – М.: Юристь, 2003.
3. Rustambayev M.X., Tuxtasheva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar: Darslik. –T.: TDYUI nashriyoti, 2011.
4. Mustafoyev B. Konstitutsiyaviy sud: tiklanish davri, maqsad va vazifalar // Ijtimoiy fikr. – Toshkent, 2002. –№6.
5. Конституция Республики Узбекистан. - Ташкент: Узбекистан, 1992.
6. O'zbekistonning yangi qonunlari. Son. 8. – Toshkent: Adolat, 1994.
7. Hakimova S. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy odil sudlovning tashkil etilishi va takomillashtirilishi // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining axborotnomasi. – Toshkent, 2005. –№12.
8. O'zbekistonning yangi qonunlari. Son.11. – Toshkent: Adolat, 1996.